

HALCHILIK HUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN

*R.Xolmatov, Z.Esonov, N.Egamberdiyeva** - Qo'qon DPI*

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng xalqimizning ko'p ming yillik tarixini o'rganishga e'tibor kuchaydi. Jumladan xalqimizning azaliy qadriyatlarini muhim bir qismi bo'lgan an'anaviy hunarmandchilik tarixini o'rganish bunda muhim o'rin tutadi. An'anaviy hunarmandchilik Farg'ona vodiysida azaldan rivoj topgan bo'lib, uning tarixi xilma-xil manbalarda o'z aksini topgan. Bunday manbalar qatoriga hunarmandchilik to'g'risidagi risolalarni misol qilib keltirish mumkin. Ahamiyatli tomoni shundaki, har bir hunarmandchilik sohasi o'zining risolasiga ega bo'lishi lozim bo'lib, bu hunar bilan shug'ullanuvchi bu risolani keyingi kasbdoshlariga ham qoldirishi shart hisoblangan. 1912-yilda musulmon risolalarini tadqiq etgan M.Gavrilovning fikriga ko'ra, risolalar VII-VIII-asrlarda Eronda vujudga kelgan va islom dini bilan O'rta Osiyoga kirib kelgan. Risolala asosan ikki qismdan, ya'ni 1-qismda hunarmandchilikning afsonaviy kelib chiqishi, 2-qismda hunarmandchilikning tartib-qoidalari yoritilgan. Risolada ko'rsatilgan bu tartib-qoidalarga to'liq amal qilishi shart hisoblangan. Xususan. XIX-asr oxiri - XX-asr boshlaridagi Farg'ona vodiysidagi ncdir hunarmandchilik turi bo'lgan zargarlik hunarmandchiligi to'g'risida Ahmadxon Eshmuhammad To'qsabo o'g'lining "Ajoyib uljome ul fozilu olam" nomli risolasi bu sohada muhim manba bo'Ub xizmat qiladi.

Avvalo ushbu manbaning o'zi to'g'risida malumot bersak. Asar XIX-asr oxiri - XX-asr boshlarida Namangan shahrida yozilgan. Asar 60 sahifani tashkil etadi va u Ishoqon Ibratning "Matbai Ishoqiya" tipo-litografiyasida 1914 milodiy yili 700 adad nusxada chop etilgan.

Ahmadxon Eshmuxammad To'qsoba o'g'lining "Ajoyib uljome ul fozilu olam" (Ajoyib olamning fozil jamlanmasi) risolasi zargarlik hunarmandchiligidagi halchilik hunarining risolasi, ya'ni o'ziga xos nizornini tashkil etadi.

"Risola" - ^rabcha so'z bo'lib, tarjima qilinganda biror kasbga yoki sohaga oid ichki tartib-qoidalarni aks ettirgan yo'riqnoma, ya'ni nizom kitobcha manisini bildiradi.

Halchi Ahmadxon Eshmuxammad to'qsoba o'g'li Namangan shahrida yashagan bo'lib, u oltmish yoshlarda haj safariga borgan. Hajdan qaytishda o'zining ko'rgan-bilgan kasblarini risola tarzida yozib qoldirgan. Bu esa unut bo'lgan kasb-hunarlar haqida muhim ma'lumot beruvchi manbani yuzaga kelishiga sabab bo'lgan.

Hal - arabcha so'z bo'lib, tilla, kumush yoki bronzadan tayyorlangan bo'yoqni bildiradi. Odatda haldan tayyorlangan qimmatbaho bo'yoq madrasalar, masjid peshtoqlari, qimmatbaho, nodir kitob hoshiyalaridagi yozuvlarni bezashda foydalanilgan. Bunday oltin, kumush yoki bronzadan tayyorlangan bo'yoqlar bilan naqshlash, bezash hunarmandchilikda "mazhib" deb nomlangan. "Ajoyib ul jome' ul fozil olam" risolasida turli rang tayyorlash usullari, shu ishga bog'liq kimyoviy ish jarayonlari yoritilgan. Masalan, oltindan rang tayyorlash usuli hunarmandchilik risolasida quyidagicha sharhlanadi: "Toza oltin mayda-mayda donachalarga aylantiriladi, ozroq sirach yoki olcha darxti yelimi bilan qo'lni issiq suvda tozalab yuvgach, qog'oz varaqchalarga maxsus idishda yoki maxsus joyda yopishtirib

chiqiladi. So'ngra idishda tozalangan suv bilan qorishtiriladi, ya'ni oltin yuqlari suv bilan qorishtiriladi. Keyin idishning usti berkitilib, bir soat davomida idish ichidagi aralashma tindiriladi. Aralashma oltin quyqasi ustidagi suv to'kib tashlanadi. Oltinga biroz yelim aralashtirilgach, oltin rang ishlatishga tayyor bo'ladi. Kumush rang eritmasi ham shu yo'sinda tayyorlanadi".

Halchilar "yoqutiy", ya'ni sarg'ish, qizil tusli rang hosil qilish uchun ikki juz sariq zamix (margimush) va bir juz yermak (achchiqtosh)ni tuyib, shisha idishda suyultirib olinsa, yoqutiy rang hosil bo'ladi. Sariq rangni esa limon, bir bo'lak surma, 2 bo'lak achchiqtoshni sirkada ezish orqali hosil qilingan. "Lovjuvardiy", ya'ni ko'k, osmonrang 12 juz kuydirilgan kumush, shuncha miqdorda temir kukuni va 4,5 donak lojuvard toshidan olib, birinchi kunda hammasini yangi chiqqan barg suvida ezadilar. Ikkinchi kuni uzum sirkasida ezilgach, lojuvardiy rang hosil bo'ladi. Qizil, ya'ni anor rangini olish uchun 6 bo'lak suvi olingan shangarv (kinovar -qizil rangli mineral) dan 1 bo'lak kuydirilgan kumush bilan oltingugurt, yarim bo'lak qalqator (sariq zok - kuporos) olinib, sirkada ezish bilan hosil bo'ladi. Shuningdek, qizil rangni kuydirilgan kumushni tuyish va murid, ya'ni nok daraxti bargi suviga qorib tayyorlash usuli ham mavjud. Sabz, ya'ni yashil rang olish uchun 10 dram (1 dram 3,5 grammga teng) surma va 1 dram siyovush, ya'ni qizil rangli o'rdak qoni va 3 dram Damashq birinjidan va billur (akvamarin, yashil-havo rang tosh)dan 1 rati (1 kg dan ortiqroq -1034,25 gr) olinib, hammasi aralashtirilgan. So'ng bu aralashma kuydirilsa, yashil rang hosil bo'lgan.

Xulosa qilib aytganda. VHI-asrdan boshlab O'rta Osiyoda kasb-hunarlar tarixini yorituvchi risolalarni yuzaga kelishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu noyob manbalarni ilmiy jihatdan chuqur o'rganish

bugungi kunda ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga egadir.

Foydalanilgan adabiyot va manba:

1. Ahmadxon Eshmuhammad To'qsoba o'g'li. Ajoyib ul jom'e ul fozili olam. Matbai Ishoqiya, litografik nashr, 1914.
2. A.Ubaydullayevning shaxsiy arxivi.